




JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2023 yil yanvar-sentabr oylari holatiga




1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar
2	Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali kelib tushgan murojaatlar
3	Ishonch telefoni orqali og`zaki murojaatlar
4	Statistika agentligining elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar
5	To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
6	Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga 2023-yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 830 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 115 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 5 ta Tadbirkor virtual ofisi axborot portal orqali, 411 ta Agentlikning elektron pochta orqali, 131 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 15 nafar ishonch telefoni orqali, 153 ta Statistika agentligi rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Statistika agentligiga asosiy qismi Toshkent shahridan 472 ta (o'tgan yilning shu davrida 370 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 70 ta, Samarqand viloyatidan 37 ta, Buxoro viloyatidan 33 ta, Andijon viloyatidan 30 ta, Navoiy viloyatidan 30 ta, Sirdaryo viloyatidan 28 ta, Qashqadaryo viloyatidan 27 ta, Namangan viloyatidan 20 ta, Jizzax viloyatidan 17 ta, Farg'ona viloyatidan 21 ta, Surxondaryo viloyatidan 16 ta, Xorazm viloyatidan 15 ta Qoraqalpog'iston Respublikasidan 9 ta hamda 5 ta murojaat boshqa hududdan kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Statistika agentligiga kelib tushgan jami **830** ta murojaatlarning tasiga chora ko'rildi, **695** ta murojaatlar ijobiy hal etildi, **125** ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, **10** ta murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **42,0** foizi (**349 ta**) jismoniy shaxslar va **58,0** foizi (**481 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



Og`zaki

- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 202-81-80



Og`zaki

- Statistika agentligi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 202-81-81



Elektron

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul: **Г.Салихова**

(71) 202-81-77